

6

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**



**IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI (AKADEMIK XONANDALIK)**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** *200 000 - San'at va gumanitar fanlar*

**Ta'lim sohasi:** *210 000 - San'at*

**Ta'lim yo'nalishi:** *60211400 - Vokal san'ati: akademik xonandalik*

**TOSHKENT – 2025**

<b>Fan/modul kodi</b> <b>IST1102</b>	<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS-Kreditlar</b> 2	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/Rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Ijrochilik san'ati tarixi</b>	<b>30</b>	<b>30</b>	<b>60</b>
<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Xonandalik san'ati tarixi fanining asosiy maqsadi - akademik xonandalik ixtisosligi bo'yicha tahsil oladigan talabalarga xonandalik san'ati tug'ilishi va tarixini o'rgatishdan iborat. Xonandalik san'ati tarixi kursida Garb - Yevropa vokal san'ati tarixi Italiya, Frantsiya, Germaniya, Rus vokal san'ati tarixi, O'zbekiston vokal san'ati tarixi mavzularidan bilimlar beriladi.</p> <p>Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Bu yerda pedagogika va vokal ijrochiligi asosiy bosqichlari tuzilishi boshidan hozirgi kungacha yoritib berilgan. Kursni to'liq va jonliroq o'tkazish uchun yozuvlarni disk, VSD, Mp3, VHS, audiokasseta, plastinka eshitish tavsiya qilinadi. Buning uchun eng buyuk, mashhur xonandalar yozuvlarini eshitish kerak. Ularni namoyish etganda talabalarning e'tiborini ijrochining vokal uslubiga qaratish lozim. Talabalarning bilim saviyasi joriy, oraliq va yakuniy reyting nazorati orqali o'tkaziladi, seminar, test yoki og'zaki so'rov.</p> <p><b>II. Asosiy qism</b></p> <p><b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b></p> <p><b>Kirish</b></p> <p align="center"><b>1-Modul. G'arbiy Yevropa vokal san'ati tarixi</b></p> <p align="center"><b>1-mavzu Italiya vokal maktabi</b></p> <p>G'arbiy Yevropa vokal san'atining tarixi Italiyalik milliy vokal maktabi. Ilk opera mualliflari. XVI-XVIII asrlarda Italiyadagi florentsiyalik, neapoletan, venetsian opera va vokal maktablari. XV-XX asrlarda italyan vokal pedagogikasi. A.Skarlatti - Bel canto asoschisi. J.Verdingning ijodiy-milliy opera maktabining cho'qqisi. Buyuk xonandalar: V.Ariklei, J.Rubini, J.Pasta, A.Patti, F.Tamanyo, M.Kallas, R.Tebaldi, Mario Del Monako va boshqalar.</p> <p align="center"><b>2-mavzu. Frantsiya vokal san'ati tarixi</b></p> <p>Frantsuz milliy vokal maktabining tuzilishi va rivojlanishi. J.Lyulli lirik</p>			

tragediyalarning yaratuvchisi. Operada rechitativ o‘rni. X.Glyukning opera reformasi. Uning qo‘shiqchilarga bo‘lgan talablari. Katta frantsuz operasining shakllanishi asoslari. F.Ober, D.Meyerber-yangi janr yaratuvchilari. Frantsuz vokal pedagogikasi. Frantsuz opera ijrochilari: A.Nurri, J.Dyupre, M.Malibran, P.Viardo.

## **2-Modul. Rus vokal san’ati tarixi**

### **3-mavzu. Nemis milliy vokal maktabi**

Nemis opera yaratilishi va uning rivojlanishi. G.Shyutts - birinchi nemis opera kompozitori. Gamburg operasi, realistik opera dramaturgiya yaratilishida V.Motsart ijodining ahamiyati. K.M.Veber ijodida nemis milliy operasining tasdiqlanishi. Nemis vokal pedagogikasining asoschisi; pedagogika rivojlanishi. Nemis buyuk opera xonandalari: A.Lange, I. Xofer, I.Shikoneder, A.Godlib.

## **3-Modul. O‘zbekiston vokal san’ati tarixi**

### **4-mavzu Rus operasining yaratilishi va rivojlanishi**

Milliy opera teatri yaratilishining muhim asoslari. M.Glinka-kompozitor, pedagog, ijrochi, rus opera va vokal maktablarining ilk asoschisi. Glinka operalarini sahnaga qo‘yilishi va rus opera qo‘shiqchilarini o‘shida ularning ahamiyati. O.Petrov, A.Vorobyova-Petrova, M.Stepanova, S.Gulak-Artemovskiy-Glinka operalarining ilk ijrochilari. Kamer-vokal janrida A.Dargomijskiy ijodining ahamiyati. P.Chaykovskiy va Moguchaya kuchka kompozitorlari opera va vokal ijodi. S.Mamontov rejissyornovator va uning opera teatri ochilishidagi roli. Peterburg va Moskvada konservatoriyalar ochilishi. Birinchi ustozlar: G.Nissen-Soloman, I.Pryanishnikov, A.Dodonov, U.Mazetti. Rus vokal pedagogikasining rivojlanishi. Buyuk rus opera xonandalari: N.Figner, F.SHalyapin, L.Sobinov, A.Nejdanova, V.Barsova, I.Arkipova, Ye.Obraztsova, T.Milashkina, V.Atlantov va boshqalar.

### **5-mavzu. O‘zbek operasi tashkil etishining asoslari**

O‘zbek operasi tashkil etishining asoslari. O‘zbek opera va vokal san’atining rivojlanishi. Milliy vokal madaniyati. Shoshmaqom-milliy professional san’ati yodgorligi. M.Qori-Yoqubov va Tamara Xonim ijodi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning ilk «Bo‘ron» o‘zbek operasi. K.Zokirov, X.Nasirova, M.Mullajanov, M.Qori-Yoqubov shu operaning birinchi ijrochilari. A.Navoiy nomidagi DAKT (1947). Rus va o‘zbek kompozitorlarining operalari sahnaga qo‘yilishi. O‘zbek opera ijrochilarining vokal mahorati tiklanishida ularning ahamiyati.

### **6-mavzu O‘zbek operasi taraqqiyoti**

O‘zbek operasi taraqqiyotida va uning propagandasida S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, R.Glier va T.Sodiqov “Layli va Majnun” operasining o‘zbek opera

san’atidagi o’rni. M.Ashrafiy-atoqli kompozitor, dirijyor, jamoat arbobi. O‘zbek opera san’atida uning ijodining ahamiyati. «Dilorom» operasi. S.Qobulova, S.Yarashev, K.Zokirov- shu operaning ilk ijrochilari. ijrochilari. Samarqandda (1964-1991) opera teatrining mavjudligi. O‘zbek operasi rivojlanishida teatrning ahamiyati. Mustaqillik davri mobaynida M.Burxonovning Alisher Navoiy, A.Ikromovning Buyuk Temur, M.Bafoevning Al-Fargoniy va boshqa operalarning yaratilishi.

### **7-mavzu O‘zbekistonda arademik vokal ijrochiligi**

O‘zbekistonda akademik xonandalik ta’limi; vokal pedagogikasining rivojlanishi. V.Devlet- konservatoriyaning yakka xonandalik kafedrasining mudiri, buyuk xonanda va ustoz. O‘zbekistondagi buyuk opera xonandalari: M.Qori-Yoqubov, X.Nosirova, N.Axmedova, S.Qobulova, S.Yarashev, A.Azimov, N.Xoshimov, Q.Muhitdinov, M.Razzoqova, A.Radjabov, O.Aleksandrova, R.Gaffarov va boshqalar.

### **III. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va mazmuni**

Ushbu fan bo‘yicha ma’lum bir mavzularni o‘tib bo‘lingandan so‘ng, oliy ta’lim muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg‘ulotlari olib borilishi nazarda tutiladi. Bu–nazariy o‘rganilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi.

Seminar mashg‘ulotlari ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Nazariy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni seminar mashg‘ulotlarida turli shakllar bilan sinovlardan o‘tkaziladi. Seminar mashg‘ulotlari fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko‘nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi

### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o‘quv qo‘llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha mahruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bogliq

	<p>bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).</li> </ul> <p>Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamgarmasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.</p>
<p>3.</p>	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- turli xil zamon va uslublarning musiqa adabiyotlarini;</li> <li>- turli xonandalik maktablaridagi asosiy yo'nalishlarni;</li> <li>- ijrochilik uslublarining xususiyatlarini;</li> <li>- turli mamlakatlarda opera janrini tashkil qilinishi va rivojlanishi tarixini;</li> <li>- ovozning registr tuzilishini <i>xaqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- xonandalik va musiqiy-tarixiy adabiyot bilan ishlash;</li> <li>- taniqli opera ijrochilarining lenta-tasmadagi musiqiy yozuvlarini eshitib tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</li> <li>- xonandalik san'ati tarixi bo'yicha adabiyot bilan ishlash</li> <li>-teatr repirtuarini bilgan xolda, operalar qahramonlari obrazlarini atroflicha taxlil qilib, to'liq tasavvurga ega bo'lgan xolda, sahnada kuylay olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
<p>4.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar.</li> </ul>
<p>5.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy</p>

	<p>nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p align="center"><b>Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar</b></p> <p>Talabalar bilimini nazorat qilish o'quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq va yakuniy nazorat 4 semestrda o'tkaziladi.</p> <p><b>Oraliq nazorat</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Professional ijrochilikning ilk qadamlari qayerda, qachon shalikllangan va qanday sabablar asosida yuzaga kelganligi haqida og'zaki gapirib berish kerak.</li> <li>2. Qadimgi Gresiyada erkak ovozi turlari va ularning qo'llanishi haqida gapirib berish (pastki, o'rta va yuqori ovozli perdalar).</li> <li>3. Xonandalikda artikulyasiya tushunchasi haqida misollar bilan, amaliy tarzda ko'rsatib berish.</li> <li>4. Qadimgi Rimda vokal pedagogikasining turli bosqichlari haqida ma'lumot berish.</li> </ol> <p><b>Yakuniy nazorat</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mashhur Italiya kompozitorlari operalarining ilk yetakchi operalaridan biri haqida taxlil yozma ish yozish.</li> <li>2. O'zbek kompozitorlarining mashhur operalaridan biri haqida og'zaki ma'lumot berish.</li> <li>3. Berilgan bilet savollariga og'zaki tarzda javob berish.</li> </ol>
<p><b>6.</b></p>	<p align="center"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xamidova M., Xasanov R. Ijrochilik san'ati tarixi. T., 2022.</li> <li>2. Yaroslavtseva L. Zarubejnqe vokalg'nqe shkolq. M., 1981.</li> <li>3. Xamidova M. Xonandalik san'ati. T., 2009.</li> </ol> <p align="center"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-488 b.</li> <li>2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.</li> <li>3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.</li> <li>4. Istoriya vokalg'nogo i xorovogo ispolnitelg'stva v Uzbekistane. T., 1985.</li> <li>5. Korsakova A. Uzbekskiy opernqy teatr. T., 1984.</li> <li>6. Pekker Ya. Uzbekskaya opera. M., 1984.</li> <li>7. Kruntyaeva T. Italg'yanskaya komicheskaya opera VIII v. M., 1981.</li> </ol>

	<p>8. Veksler S. Ocherki po istorii uzbekskoy muzqkalg'noy kulg'turq.            9. Barsov Yu. Вокально-исполнительские и педагогические принципы Глинки М., 1968.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://notes.tarakanov.net/">http://notes.tarakanov.net/</a></li> <li>2. <a href="https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm">https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm</a></li> <li>3. <a href="http://www.classic-online.ru">http://www.classic-online.ru</a></li> <li>4. <a href="http://www.operascores.ucoz.com">http:// www.operascores.ucoz.com</a></li> <li>5. <a href="http://www.classic-music.ru">http://www.classic-music.ru</a></li> <li>6. <a href="http://www.wikipedia.org">http:// www.wikipedia.org</a></li> </ol>
7.	<p><b>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» <u>08</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</b></p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>            Xamidova M.A. – O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrası professori, s.f.d.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>            Radjabov A.A - O'zbekiston xalq artisti, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrası professori            Muxamedova G.I. - O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrası professori</p>

